

**IJODKOR YARATGAN OCHERK JANRINING  
O‘ZIGA XOS KOMPOZITSIYASI**

*Axmadjonova Muslimaxon  
Namangan davlat universiteti  
Filologiya fakulteti o‘zbek tili  
Yo ‘nalishi 4-bosqich talabsi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon ocherklarining o‘ziga xos xususiyatlari, ocherk janrining takomilida tutgan o‘rni, ahamiyati aks etgan.

**Kalit so‘zlar:** kompozitsiya, lirika, ocherk, didaktika, nasrchilik, lirik qahramon, “Vayronalar orasidan”, “ Bahor avvallari”

Cho‘lpon hikoyalarida kuzatganimiz janr xususiyatlarining rang-barangligi uning ocherklariga ham xosdir. Cho‘lpon ijodida ocherk janrida yozilgan asarlar salmoqli o`rin tutadiki, bu bejiz emas, albatta. Mutaxassislar fikricha, milliy adabiyotlar tarixida ocherk janrining gullab-yashnashi mavjud ijtimoiy munosabatlarning yemirilishi va ularning o`rnida yangilarining shakllanishi davrlariga to`g`ri kelar ekan. Ma`lumingizki, Cho‘lpon ijodiy faoliyati — xoh inqilobgacha va xoh undan keyingi davrni oling — ayni shunday davrlarga to`g`ri keladi. Bezocta qalbning tinchiy olmagani, o`zini o`rtagan muammolarni anglash, ularni omma bilan o`rtoqlashish ehtiyojini har dam tuyub yashagani ham shundandir, ehtimol.

Cho‘lponning matbuot yuzini ko`rgan ilk asarlaridan biri —"Bahor avvallari" nomli etyud (badiiy-publisistik lavha) uning ocherk janridagi ilk mashqlaridan sanalishi mumkin. O`n yetti yoshli muallif voqelikka bir qur nazar tashlaydi-da, nigohiga ilingan narsalarni shoshib qalamga oladi: go`yo u rassomu ijtimoiy hayotning muayyan lahzasini matoda qotirib qo`yishga shoshilayotgandek. Muallif nigohi tabiatdan dehqonlarga, ulardan mahalliy boylargaga, keyin tolibu mudarrislargaga, nihoyat, "xushyoqmas xalq"qa ko`chadi — ularning birontasida uzoqroq to`xtalmaydi. Shu bois ham "Bahor avvallari" parchalardan tarkib topgan mozaikadek taassurot qoldiradi kishida: parchalar orasidagi choklar aniq ravshan ko`zga tashlanadi-yu, lekin bir butunlik yuzaga kelaveradi. Butunlikni ta`minlovchi unsur esa — muallif nigohi, uning voqelikka munosabati. Darvoqe, muallif munosabati ham qo`sh qirrali — lirik va kinoyaviy. Tabiatdagi jonlanish haqida gap ketganida liriklikka yo`g`rilgan ifoda jamiyat hayoti haqida so`z yuritiganida kinoyaviylik kasb etadi:

Iching choy, o`lturung behuda g`iybat sotub, ey xalq,

Kelur qish bir vaqt, qolmas sizga bu davru davronlar.

Avvalo, teskari ma`nodagi chaqiriq(kinoyaning bir turi — antifrazis) nafaqat tabiat bahori, ijtimoiy hayot bahorini-da g`aflatda o`tkazmaslikka undayotganini qayd etish lozim Zero, davr kontekstida ayni shu ma`no muallif uchun birlamchidir. Ikkinchidan, "Bahor avvallari"ning har bir kompozitsion bo`lagi she`riy misralar bilan yakunlanadiki, bu Cho`lpon an`anaviy nasrimiz, xususan, didaktik asarlarga xos usuldan foydalanganini ko`rsatadi. Aytish kerakki, an`anaviy shakldan foydalangan adib unga yangicha mazmun bag`ishlaydi: she`riy parchalarning g`oyaviy-badiiy funksiyasini tubdan o`zgartiradi. Agar didaktik nasrchiligidizda she`riy parchalar aytilgan fikrlarni jamlashu lo`nda ifodalashga xizmat qilgan bo`lsa, Cho`lpon ulardan o`zi tasvirlayotgan narsaga g`oyaviy-hissiy munosabatini ifodalash uchun foydalanadi.

"Bahor avvallari"da kuzatganimiz kinoyaviy ifoda yo`sini o`ziga maxsus nuqtai nazar poetikasini taqozo qiladi. Ya`ni, bu holda muallifning chetdan kuzatuvchi mavqeida turishi kamlik qiladi, voqelikdan har tomonlama "yuqori" turishi taqozo qilinadi. Shunga ko`ra, Cho`lpon ijtimoiy hayotni "yuqori"dan kuzatadiki, shu tufayligina uning nigohi lahzalar mobaynida u ijtimoiy qatlardan bunisiga ko`cha oladi, shu mo`jaz parcha orqali butunga — Turkiston ijtimoiy voqeligiga yaxlit munosabatini ifodalash imkoniga ega bo`ladi.

Cho`lponning yo`l ocherklaridan biri — "Vayronalar orasidan" nomli safarnomasida esa o`zgacha holga duch kelamiz: bunda muallif voqelikni "ichdan" kuzatadi. Andijondan O`sh va Jalolobodga qilingan safar davomida muallif o`zi guvoh bo`lgan eng xarakterli voqealarni, ko`zi tushgan narsalarini qayd etib boradi. Biroq safarnomani faktlarning oddiygina qaydi deya olmaymiz, zero, unda faktografik va tahliliy qatlamlar yonma-yon boradi. Asar markazida turuvchi sayyoh-muallif obrazi ikki qatlamning uyg`un birikuvini ta`minlaydi. Cho`lpon keltirayotgan faktlar reallikdan olingani ayon, biroq buni naturalistik qayddar ma`nosida tushunmaslik lozim. Faol ijodkor shaxs sifatida Cho`lponning o`z qarashlari, orzu-tilishlari, bir so`z bilan, ijtimoiy-estetik ideali mavjud edi. Demakki, tanlanayotgan faktlar ham o`sha idealga mos, birinchi galda adibning qarashlariyu xulosalarini ifodalashga xizmat qiladilar. Shu ma`noda ularning aksariyatini publisistik-illyustrativ obrazlar sirasiga qo`shishimiz mumkin.

"Vayronalar orasidan"ning kompozitsion qurilishi, bir tomonidan, safarnoma janri talabi bilan, ikkinchi tomonidan, undagi tahliliy qatlamning o`ziga xosligi bilan belgilanadi. Safarnoma janri talabidan kelib chiqqan holda makon va zamon o`zgarishlarining qat`iy tartibi saqlangan. Biroq bu yo`llardan ilgari ham ko`p bor yurgan sayyoh mushohadasi hozirgi mavjud faktlar bilangina qanoatlanmaydi: u o`zi bilgan o`tmishga bot-bot qaytadi, chog`ishtirishga intiladi. Yurt qayg`usida yashayotgan adib tafakkuri vaqt chegaralarini buzib yuboradi. Adib biron faktini keltirar ekan o`tmishni eslaydi, muqoyasa qiladi, uning o`ylari qatida esa doimo kelajak tashvishi botin bo`ladi. Fikrimizni asoslash uchun sayyohning birgina faktini

qay tarzda mushohada etishiga e`tibor beraylik. Xo`jaobod qishlog`i yaqinida "Farg`onaning mashhur qorunlaridan yahudiy simxoyevlar"ning pu-liyu hiylanayranglari bilan barpo etilgan bog` haqida quyi-dagilarni o`qiymiz: "Ko`p mevali daraxtdan iborat bo`lg`on ul keng bog`ni juda ko`p, hadsiz-hisobsiz kerak ko`chatlari bor ekan, g`alati ovrupovoriy imoratlar, gulshanlar yasalgan. Necha yuzlab qo`y, necha o`nlab mol-siyirlar, yaxshi ho`kuzlar necha juft otlar turg`onlar, dehqonchilik asboblarining ham har xili bo`lg`on.

Bu, albatta, ilgari vaqtida, mana bu kichik urushlar vaqtida bog`cha tamom ishdan chiqib, bir chakalakzor bo`lib qolg`on. Imoratlarini istehkom yasab olib bosmachilar bilan askarlarimiz, askarlarimiz bilan bosmachilar otishqonlar. Hisobsiz miltiq teshiklari yaqin zamondagi dahshatlik damlarni esga solub, masxara qilib turadurlar...

Ilgari tubjoy xalqidan bir necha kishi bog`ni hukumatdan ijara qilg`on ekanlar. Keyingi vaqtida hukumat ul ijara chiliklardan qaytarib olub, "qishloq soyuzi" degan tashkilotga bergan. Bu tashkilot ziroat muhandislari yuborg`on, xo`jaobodliklardan mardikor yollab, ishlatub turadur. Biz o`tub ketayotqonda bir necha kishi zambar to`kub turar edi. Yiqilg`on, buzulg`on uylar tuzatilmakga boshlag`on, bog`chaga ham chinakam bel bog`lab ishlagan ko`rinadilar".

Yurtining kecha va bugunini qiyoslarkan, adib urush keltirgan vayronaliklarni ko`rib eziladi, urush asoratlari bartaraf etilayotganini, yaratish davri boshlanayotganini ko`rib dili taskin topadi. Biroq yo`l davomida duch kelgani ayrim faktlar uni chinakam tashvishga soladiki, ularni keltirish bilan o`quvchini yurtining ertasi haqida jiddiyroq mushohada qilishga undaydi. Cho`lpon Xo`jaobod paxta punktida "bir Zubov degan hazinachi bor ekan, uning eng shirin gapi ko`cha so`kishlarining o`rtacharog`i ekan" deya alamli istehzo bilan yozadi. Muallif Zubovning mahalliy aholiga haqoratomuz muomalasi haqida xabar berarkan, qiziq bir faktni gazetxon e`tiboriga havola qiladi. Gap shundaki, mahalliy aholi shikoyatlariga asosan O`sh hukumati (ya`ni, o`sha paytdagi uezd hukumati) Zubovni chaqirtirganida, u "ish vaqtি borolmayman" deydi-da, bormay qo`yaqoladi. Qizig`i shundaki, "paxta ma`rakasiga zarar qilmasin, deb O`sh hukumati ham o`zicha bir narsa qilmasdan, muzofot mahkamalariga havola qilibdur". Ko`ramizki, bu o`rinda Cho`lponni oddiy bir kassirning mahalliy hukumatni mensimasligi emas, o`sha hukumatning kassir "ulug` og`a"lardan bo`lganligi uchun-da hech bir ta`sir qilolmasligi hayratga soladi. Boz ustiga, uezd hukumati paxta kampaniyasiga zarar yetishidan qo`rqib masalani yuqoriga oshirar ekan, demak, yuqori idoralar avvalo paxtani talab qiladi, uni yetishtirayotgan xalq sha`ni esa ikkinchi darajali masala. Shu o`rinda satr orasida Cho`lponning "bu mustamlakachilik siyosatining ayni o`zi emasmi?!" degan tashvishli savoli ko`zga tashlanadi. Zero, muallifning umidi ham shu aslida: u o`zi aytmagan, aytolmagan gaplarni ziyrak gazetxon uqib olishiga ishonadi. Qizig`i shundaki, adib bunga o`xshash faktlarni keltirganida, bog` misolida ko`rganimiz "o`tmish — hozir — kelajak" silsilasidan faqat

"hozir"ni oladi. Yuqoridagicha sxema asosida mushohada yuritib kelayotgan gazetxon beixtiyor yana o`sha yo`sinda o`ylay boshlaydi, yetishmayotgan xalqalarini o`zi topib, to`ldiradi. Ko`ramizki, asarning kompozitsion qurilishidagi o`ziga xoslik muallif ko`zlagan g`oyaviy-badiiy niyat bilan izohlanar ekan.

Cho`lponning "Yo`l estaligi" nomli safarnomasi borki, uning janrini bu xil belgilashimizda shartlilik ulushi ko`proq. Sababi, asarda yo`l ocherkiga xos asosiy jihat — ko`rilgan narsa-hodisalarni makoniylari o`zgarishlarga muvofiq tarzda tasvirlab borishlik yo`q. "Yo`l estaligi"da yo`lda ko`rilgan narsa-hodisalar tasviri yoki tavsifi emas, sayyoh ruhiyatidagi his-tuyg`ularu o`y-fikrlar kurashining tasviri birlamchidir. Shu bois ham muallif yo`lda ko`rilgan narsa-hodisalar, manzillarni konkretlashtirmaydi — ular kechinmalarga turtki berishu o`zni anglash va ifodalash uchungina kerak. Shuni e`tiborga olgan holda "Yo`l estaligi"ni lirik turga mansub, deyish mumkin(fikrimizcha, asar o`zining janr e`tibori bilan ko`proq "lirik poema"ga yaqin. Shunday bo`lsa-da, bir tomondan, uning tashqi shakliy xususiyatlari yo`l ocherkiga xosligi, ikkinchi tomondan, muomalada qulaylikni ko`zlab "safarnoma" tarzida nomlab turamiz). Asarning yana bir o`ziga xos jihat shundaki, unda ramziy-majoziy ifoda yo`lidan borilgan. Deylik, tabiat tasviri lirik-romantik ruhga yug`rilgangina emas: unda goh sayyoh qalbi suratlanadi, goho bezovta qalb bilan uyg`unlik, goh esa zidlashuv kuzatiladi. Aytmoqchimizki, "Yo`l estaligi"da tasvirlanayotgan narsa bilan ifodalanayotgan narsa orasida bevosita aloqa mavjud emas (bu haqda to`rtinchi bobda maxsus to`xtalamiz). Ya`ni, ifodalanayotgan narsa bevosita tasvirdan o`sib chiqmaydi, u ramzlar qatida botindir. Aniqrog`i, bevosita tasvirdan o`sib chiqayotgan mazmun ifodalash ko`zlangan mazmunni pardalab turadi, har ikkisi mustaqil holda yashaydi. Yuqoridagi mulohazalarimizdan ko`rinadiki, janr ramkalari Cho`lponning ijodiy izlanishlariga rahna sololmaydi, u janr doirasida tamomila erkin sezadi o`zini. Ayni shu ma`nodagi ichki ijodiy erkinlik sabab bu asarlar bir-biridan muallif tutgan mavqe, tafakkur tarzi, vogelikka munosabat turi, ifoda va tasvir yo`sini kabi muhim ko`rsatkichlar bo`yicha jiddiy farqlanadi, ularning har biri betakror originallik kasb etadi.

Cho`lpon nasri bilan ozmi-ko`pmi tanishgan kishi uning chin ma`noda shoir prozasi ekaniga amin bo`ladi. Zero, bu asarlarning qat-qatiga singib ketgan lirizm, lirik tafakkur har lahza she`r iforini taratib turadi. Bugina emas, Cho`lpon merosida "Ayriliq yo`li", "Chopon va paranji", "Qurban", "Salom senga" kabi qator asarlar ham borki, ular tom ma`nodagi lirik hodisa — nasriy she`rlardir.

Kezi kelganda yana bir narsaga diqqatni jalb etish joiz. Cho`lponning vaqtli nashrlarda e`lon qilingan aksar she`rlari uning o`zi tartib bergen to`plamlariga kiritilmagan. Diqqat qilinsa, to`plamlarga kiritilmagan she`rlarning ko`pchiligidagi ochiq-oshkor publisistika, deklarativlik ustunligini sezish qiyin emas. O`ylashimizcha, hassos shoirimiz she`riyatga yuksak talablar bilan yondoshgani uchun

ham publitsistik ruh-la yo`g`rilgan she`rlar bilan she`riy shakldagi publitsistikani farqlagan. Adibning nasriy she`rlarida ham publitsistik ruh ustivor, biroq ularni lirik hodisa deb ataymiz. Negaki, ularning lirik qahramoni — zamonasining dolzARB muammolari haqida o`ylayotgan Cho`lpon uchun shaxsiylik va ijtimoiylik chegarasi mavjud emas: millat, yurt qayg`usi uning qalbida obdon qaynab, dil qoniga to`yingachgina bo`g`ziga bir fig`on, hayqiriq bo`lib chiqadi. Tabiiyki, bu qaynoq tuyg`ularni taftini ketkazmay ifodalash uchun o`ziga maxsus shakl zarurdirki, Cho`lpon buning-da eng optimal yo`llarini izlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O.Sharafiddinov. Cho`lponni anglash.-T.,1994;
2. B.Do`s tqorayev. Bir munozara tarixidan// Sharq yulduzi.- 1989.
3. O.Sharafiddinov. Ijod yo`li// Yoshlik.-1987
4. Cho`lponning ijod yo`li to`g`risida// Sharq yulduzi.-1988
5. E.Karimov. Olisdagi yorqin yulduz// Fan va turmush.-1988
6. B.Axmedov. Tong qorong`usida// O`zbekiston adabiyoti va san`ati.-1988.-  
25noyabr
7. R.Otaboyev. Tong yulduzi shu`lalari// Sharq yulduzi.-1989